

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIMVAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Ahadova Dilbar Baxtiyorovnaning

**“UNIVERSITET INFORMATSION TIZIMI SAYTINING DIZAYN
SHABLONLARINI (CSS) YARATISH”**

“Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoyaga ruxsat Ilmiy rahbar ___ Z.Sh.Jo'rayev
berildi” « ___ » _____ 2016 y.

Kafedra mudiri Taqrizchi _____
_____ dots.T.B.Boltayev « ___ » _____ 2016y.
« ___ » _____ 2016 y.

«Himoya qilishga ruxsat berildi»

Fakutet dekani prof.Sh.M.Mirzayev

« ___ » _____ 2016 y.

Buxoro-2016

MUNDARIJA

Kirish.....	1-4
I. Universitet informatsion tizimi saytining dizayn shablonlarini (CSS) yaratishda foydalaniladigan dasturlash tillari.	
1.1 HTML web dasturlash tili haqida ma'lumot.....	6
1.2 CSS web dasturlash tili haqida ma'lumot va uning imkoniyatlari.....	16
1.3 JavaScript web dasturlash tili imkoniyatlari va uning dizayn shablonlari yaratishda ishlatilishi.....	34
1.4 Shablonlarni tayyorlashda JQuery kutubxonasing imkoniyatlari.....	38
II. Universitet informatsion tizimi saytining dizayn shablonlarini (CSS) yaratish.	
2.1 Dasturobyektlari.....	43
2.2. Sahifada ishlatiladigan element shablonlari.....	55
2.2.1 Menyu ko`rinishdagi shablonlar.....	59
2.2.2 Jadval ko`rinishdagi shablonlar	65
2.2.3 Forma ko`rinishdagi shablonlar.....	71
2.3 Amalga oshirish.....	80
Xotima.....	84
Foydalanilgan adabiyotlar.....	85

”Jamiyatdagi har qanday yangilanish,

har qanday o'zgarish, avvalo inson uchun, uning hayotini farovon etish uchun amalga oshirilmog'i darkor"

I.A.Karimov

Kirish

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin uning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash, unga bilim berish masalasida alohida ahamiyat berila boshlanganligi sababli, istiqlolning ilk kunlaridayoq manaviyatimizni tinglash uni yanada yuksaltirish zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalariga mos darajada chiqarishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bular ichida eng muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar. Ushbu qonun fuqarolarga huquqiy ta'lim asoslari bilan birga, kasb-hunar o'rgatishning yangi qirralariga zamin tayyorlaydi. Bu qonun har kimning bilim olishidan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, yangi bilim berish darajasini olishda beqiyos samara kashf etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Oliy majlisi IX sessiyasidagi nutqidagi masalaga o'z munosabatini bildirib, yo'l qo'yilayotgan qator kamchiliklarga diqqatni jalb qildi. Asosiy masala, zamon talab qilayotgan, butunlay yangicha tartibdagi va yangi uslubdagi o'rta umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy o'quv yurtlaridagi islohotlarni o'tkazishdan iboratdir. Shu sababli ham, Oliy Majlisning IX sessiyasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilinib, unga ta'lim sohasida tub o'zgarishlar qilish vazifalari qo'yiladi. Dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uning o'tish kamchiliklaridan xoli qilish,

rivojlangan demokratik va davlatlar darajasidagi, yuksak axloqli, ma'naviyatli, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratishdan iboratdir. SHu nuqtai – nazardan hozirda xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar birinchi navbatda etuk kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Jahonda va Mustaqil O'zbekistonimizda kelayotgan chuqur sotsial o'zgarishlar, uzluksiz ta'lim tizimini rovojlantirishga yangilashga va mukammallashtirishda yangicha yondashishni talab etadi. Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi tizimni yaratish va malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilganligini aniq ko'rishimiz mumkin. Bu o'rinda akademik litsey va kasb-hunar kollejining o'rni ahamiyatlidir. Bu ta'lim bosqichida talabalarga jahon talablariga mos keladigan bilim berish va ularni zamonaviy texnika, texnologiyalar bilan muomala qila oladigan mutaxassislarni tarbiyalab etkazishga yangicha tabiiy ilm-ta'lim kontsepsiyasi yaratilmoqda. 2010 yil «Barkamol avlod yili» davlat dasturining 9-10 bandlaridagi barkamol avlod tarbiyasida eng zamonaviy raqamli elektron ta'lim tizimini joriy qilish, ta'lim tizimini zamonaviy axborot komp'yuter texnologiyalaridan keng foydalanish, ta'lim tizimini axborotlashtirishni yanada jonlantirish masalasi ilgari surilgan.

Har bir informatsion tizim saytining yoki boshqa saytlarning asosiy ko'rinishi ya'ni dizayni muhim ahamiyatga ega. Ya'ni foydalanuvchining ixtiyoriy saytdan foydalanishi va uning ushbu saytga bo'lgan e'tiborini yanada oshirish maqsadida har sahifaning dizayn shablonlari alohida did va e'tibor bilan yaratilishi kerak.

Mavzuning dolzarbligi: Foydalanuvchiga qulaylik yaratish va tizimga bo'lgan qiziqishni oshirish. Ya'ni dizayn shablonlari foydalanuvchi e'tiborini tortishi orqali tizimdan foydalanish faollashadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi: HTML va CSS web dasturlash tillari imkoniyatlaridan foydalangan holda dizayn shablonlarini yaratish.

Bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari: HTML va CSS web dasturlash tillari imkoniyatlarini, JavaScript web dasturlash tili imkoniyatlarini o'rganish, dizayn shablonlari yaratishda CSS tilidan foydalanib, uning imkoniyatlarini ko'rsatish.

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi: Dasturni tuzish jarayonida HTML web dasturlash tilini, CSS tilini, JavaScript tili, uning imkoniyatlarini, JQuery imkoniyatlarini o'rgandim va Universitetda mavjud tizim bilan bog'langan dizayn shablonlari haqida bilimga ega bo'ldim.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: HTML, CSS web dasturlash tillari, JavaScript tili, JQuery imkoniyatlari.

Bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti: Universitet informatsion tizim saytining dizayn shablonlari.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi: Informatsion tizim saytining dizayn shablonlarini yaratishda HTML web dasturlash texnologiyasi va CSS tillarini qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi: Informatsion tizim saytining dizayn shablonlarini yangicha ko'rinishda ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati: Informatsion tizimdan foydalanadigan foydalanuvchilarga qulaylik yaratish, shu bilan birga ularga estetik zavq bag'ishlash.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asoslari: Web dasturlashning bir qismi bo'lgan HTML tili va CSS tili.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari: Dizayn shablonlarini yaratishda HTML tili, CSS tili va JavaScript tili imkoniyatlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi va hajmi: Ushbu bitiruv malakaviy ishi ___betdan iborat bo'lib, kirish, 2 ta bob, xotima, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Universitet informatsion tizimi saytining dizayn shablonlarini (CSS) yaratishda foydalaniladigan dasturlash tillari.

1.1 HTML web dasturlash tili haqida ma'lumot

Gipermatnlar tili (HTML) web-brauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi. HTML dan foydalanib o'zida tahrirlangan matn, tasvir, multimediya elementlarini aks ettirgan web-sahifalarni yaratish mumkin.

HTML ni dasturlash tillaridan farqlash lozim. HTML ni web-brauzerlarga matn yoki tasvirlarni qay holatda chop etish ko'rsatmalar nabori deyish ham mumkin.

HTML tili buyruqlari teg (tag) deb ataluvchi maxsus elementlar yordamida beriladi, ya'ni uning asosini teglar tashkil etadi. Teglar $\langle \rangle$ qavs orasida berilib, ular brouzerda ko'rinmaydi, balki qulay ko'rinishga keltirish uchun xizmat qiladi. Odatda, ko'pchilik teglar ikki marta takrorlanib, jufti bilan beriladi, ya'ni «ochilib-yopiladi». Masalan, $\langle \text{BODY} \rangle$, $\langle / \text{BODY} \rangle$.

HTML tili tanasida ajratib ko'rsatish uchun teglar katta harflar bilan yoziladi va $\langle \text{HTML} \rangle$ bilan boshlanib, $\langle / \text{HTML} \rangle$ bilan tugaydi. Bunda katta va kichik harflar farqlanmaydi.

Shuningdek, HTML tili andozasi bo'yicha hujjatga $\langle \text{HEAD} \rangle$ va $\langle \text{BODY} \rangle$ teglarini kiritish tavsiya etiladi. Braozer HTML hujjatni o'qiganida, ularning borligi hujjat bo'limlarini aniq ko'rsatadi. Biroq ular bo'lmasa ham, braozer HTML — hujjatni to'g'ri o'qiydi, lekin hujjat bo'limlari bir-biridan ajralib turmaydi.

Shunday qilib, to'g'ri tuzilgan HTML — hujjat quyidagi tuzilishga ega:
 $\langle \text{HTML} \rangle$

< HEAD>

Sarlavhaga oid ma'lumot

</ HEAD>

< BODY>

Hujjatning mazmuni

</BODY>

</HTML>Bunda <HEAD>, </HEAD> orasida joylashgan sarlavhaga oid ma'lumot qismida, odatda, foydalanuvchiga e'tiborli bo'lmagan, lekin brauzer uchun lozim ma'lumot beriladi.

< BODY>, </BODY> orasiga esa uning operatorlari to'laligicha ketma-ketlikda joylashtiriladi.

Masalan :

< HTML>

< HEAD>

< TITLE> My 1 web </TITLE> (Bu darchaning sarlavhasi uchun)

</HEAD>

< BODY>

<p>Mening birinchi veb-sahifam</p> (Bu tahrir darchasi uchun)

< /BODY>

</HTML >

HTML tili asosiy operatorlari va ularning tasnifi: HTML tili operatorlardan tashkil topadi. Ularning asosiylarini ko'rib chiqamiz.

1. — izoh. Shu belgi orasiga joylashtirilgan ixtiyoriy matn izoh deb qaraladi.**2. A**

`<A>...` — hujjatga gipermurojaat o'rnatish.

Atributlari (qo'shimcha yordamchi operatorlari, bular `<A>...` orasida ishlatiladi): HREF, NAME, TARGET, _blank, _top, _parent, _self, TITLE, TYPE, CHARSET, HREFLANG.

HREF atributi — gipermurojaatga olib boruvchi URL ta'riflovchisi vazifasini bajaradi. Masalan: ``

O'zMU ``. Agar yo'nalish ichma-ich joylashgan papkalarda joylashgan bo'lsa, `<>` belgisi yordamida ko'rsatiladi. Agar murojaatni shu sahifadagi biror belgiga o'rnatish lozim bo'lsa, `<#>` belgisidan keyin ko'rsatiladi.

NAME — agar gipermurojaat shu sahifaning o'ziga o'rnatilgan bo'lsa, o'tishni ushbu atribut yordamida ko'rsatish mumkin;

TARGET — gipermurojaat qayerda ochilishi kerakligini ko'rsatadi:**blank** — gipermurojaat natijasini yangi darchaga ochib beradi;

top — natijani brouzerdagi barcha darchalarga ochish (maxsus FRAMElar uchun);

parent — natijani brouzerdagi bosh sahifa darchasiga ochish (maxsus FRAME lar uchun);

self — natijani joriy darchada ochish (maxsus FRAME lar uchun).

TITLE — bu hujjat darchasining sarlavhasini ifodalash uchun;

TYPE — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning MIME — turini aniqlaydi;

CHARSET — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning yozuv kodini aniqlaydi;

HREFLANG — gipermurojaat o'rnatilgan hujjatning yozuv tilini aniqlaydi.

Masalan: <a href=first.html#mavzu № 1 type = «text/html» charset = «iso-8859-6» hreflang = «ru» target=»_blank»

3. B

... — matnni to'q-qalin shrift bilan tasvirlaydi.

Masalan: bir, ikki, uch .

4. BASEFONT

<BASEFONT>...</BASEFONT> — hujjatda avvaldan qabul qilingan shriftning o'lchami, turi va rangini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Odatda, matnda shrift o'lchamini bir xilda, ta'kidlashsiz ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shrift o'lchami 1 dan (eng kichik) 7 gacha (eng katta). Ta'kidlanmasa, avtomatik ravishda 3 o'lchovida yoziladi.

Masalan: <BASEFONT SIZE = «4»>

5. BGSOUND

Sahifa foniga ovozni ulash. *.mid, *.wav, *.au turdagi ovozli fayllarni qabul qiladi.

SCR — orqali ovozli fayl joylashgan joy ko'rsatiladi;

LOOP — fonli ovozning takrorlanish sonini ko'rsatish, «-1» qiymati yoki «INFINITE» ni tanlash orqali cheksiz qilib qo'yish mumkin.

Masalan: <big> Katta o'lchamli matn </big>.

6. BODY

<BODY>...</BODY> — veb-sahifani to'ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi, ya'ni asosiy ma'lumotlar ushbu teglar orasiga kiritiladi. Atributlari:

BACKGROUND — fon tasviri yoki rasmning manzilini ko'rsatish.

Masalan: <body background = «rasml.gif» ... >

BGCOLOR — fon rangini ko'rsatish, bunda rang o'mida tasvir yoki rasmlardan ham foydalanish mumkin.

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor=»red» ...> .

TEXT — matnning asosiy rangi.

Masalan: <body background=»rasml.gif» bgcolor= «gray» text= «black» ... >

LINK — gipermurojaatli matn rangi.

Masalan: <body background = «rasml.gif» bgcolor = «red» text = «black» link = «blue»... >

VLINK — gipermurojaatli matn tanlangandan keyingi rangi;

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor= «red» text=«black» link= «blue» vlink= «olive»... >

ALINK — joriy gipermurojaat rangi, kursor yordamida tanlangan paytda shu rang ko'rinadi.

Masalan: <body background= «rasml.gif» bgcolor= «red» text= «black» link= «blue» vlink= «olive» alink= «orange»... >

7. BR

Satrnı avtomatik bo'lib, keyingi satrga o'tkazish.

8. DD

Matn chap chegara bo'yicha tekislanadi. Ta'riflar ro'yxati (DL) ichida ishlatiladi.

Masalan:

```
<dl>
```

```
<dt> Birinchi pog'ona
```

```
<dd> Ikkinchi pog'ona</dd>
```

```
</dl>
```

9. DL

`<DL>...</DL>` — ta'riflar ro'yxatini ko'rsatadi. Ichida `<DT>` teg orqali aniqlanayotgan termin, `<DD>` teg bilan esa termin ta'rifi beriladi.

Masalan:

```
<dl>
```

```
<dt>termin
```

```
<dd> termin ta'rifi <dd>
```

```
</dl>
```

10. EMBED

Sahifadagi bajariluvchi obyektlar uchun zarur bo'lgan vositalar joylashgan joyni ko'rsatish yoki avtomatik bajariladigan qilish. Masalan:

Flash, VRML, QuickTime, Adobe Acrobat va boshqa vositalar orqali.

SCR — orqali obyekt (fayl) ning joylashgan joyi yo'lini ko'rsatish.**11.**

FONT

... — shrift parametrlarini ko'rsatadi.

Atributlari:

SIZE — matn o'lchamini ko'rsatish;

COLOR — matn rangini ko'rsatish;

FACE — shrift nomini ko'rsatish, shuningdek bir nechta shriftni ham o'rnatish mumkin.

Masalan: qizil rang, o'lchami uch

12. H1

Matn qismi yoki holati.

<H1>...</H1> — birinchi pog'ona sarlavhalari (eng kattasi).

Atributlari:

ALIGN — Tekislashni aniqlash.

Masalan: <h1 align= «center» ... > ... </h1>

FONT — berilgan matn qismi shriftini ko'rsatish.

Masalan: <h1 align = «center» font = «Verdana» ... > ... </h1>

SIZE — shrift o'lchamini ko'rsatish.

Masalan: <h1 align = «center» font = «Verdana» size = «3» >

... </h1>

13. H2

`<H2>...</H2>` — ikkinchi pog'ona sarlavha. Umuman olti xil sarlavha mavjud. Ularning qolgan to'rttasi `<H3>`,`<H4>`,`<H5>`,`<H6` (eng kichigi)`>` bilan belgilanadi.

14. HR

`<HR>` — gorizontal chiziq (chizg'ich) qo'yadi.

15. I

`<I>...</I>` — matnni yozma shrift bilan tasvirlaydi.

`<i>` Bir, ikki, uch `</i>`.

16. IMG

`` — sahifada rasm joylashtirishda ishlatiladi.

Masalan: ``, bu yerda photol — sizning veb-sahifangizdagi fayl bilan bitta katalogda turgan rasm nomi.

Atributlari:

SCR — rasm joylashgan joyni ko'rsatish;

ALT— rasm ochilguncha yoki ochilmay qolganda tegishli matnli satr kiritish;

ALIGN — tasvirda matnning holatini ko'rsatish:

top — yuqori chegara bo'yicha; bottom — pastki chegara bo'yicha; left — chap chegara bo'yicha; right — o'ng chegara bo'yicha; center — markaz bo'yicha.

WIDTH — rasm kengligi;

HEIGHT — rasm balandligi;

HSPACE — gorizontal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash;

VSPACE — vertikal bo'yicha tasvirgacha bo'lgan bo'sh maydonni aniqlash;

BORDER — tasvir atrofidagi chiziq o'lchamini ko'rsatish;

NAME — tasvir nomini aniqlaydi.

Masalan:

```
<img src = «file 1 .gif» alt = «MY Home: homel»
```

```
width = «75» ;
```

```
height = «100»;
```

```
name = «MY Home: homel» vspace = «5»
```

```
hspace= «5» border = «2»>
```

17. LI

`...()` — ro'yxatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi (odatda, `...(</O L>` yoki `...(` ro'yxat teglari orasida ishlatiladi).

VALUE — ro'yxat yozilish tartibini (nomer boshini) aniqlaydi.

TYPE — ro'yxatdagi nomerlash turini ko'rsatadi.

Masalan: `<li value = «5»> ... `

18. OL

`...(` — to'liq tartiblangan ro'yxatni aniqlaydi.

Atributlari:

TYPE — tartiblangan ro'yxat turini ko'rsatish;

1 — arab raqamlari yordamida tartiblash;

A — katta harflarda tartiblash;

a — kichik harflarda tartiblash;

I — rim raqamlarida tartiblash;

i — kichik rim raqamlarida tartiblash;

START=n — nechadan boshlanishi;

COMPACT — ro'yxatni ixcham ko'rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi.

Masalan:

```
<OL TYPE=I START=15>
```

```
<LI> Dasturlash
```

```
<LI> Algoritmash
```

```
<LI> Loyihalash
```

```
</OL>
```

Natijasi:

XV. Dasturlash

XVI. Algoritmash

XVII. Loyihalash

19. P

<P>...</P> — abzas (xat boshi)ni aniqlaydi.

Atributlari:

ALIGN — tekislashni aniqlash;

left — chap chegara bo'yicha;

right — o'ng chegara bo'yicha;

center — markaz bo'yicha;

justify — kengligi bo'yicha (eniga);

<p align = «Justify»> ... </p>

20. PRE

<PRE>...</PRE> — oldindan formatlangan matnni aniqlaydi, matn holatini saqlaydi.

Masalan: <pre> Probellami tekshirish </pre>.

21. SCRIPT

Java Script kodini aniqlaydi.

22. SUB

Matnni quyi indeks kabi ifodalash

Masalan: _{bir, ikki, uch}

23. SUP

Matnni yuqori indeks kabi ifodalash

Masalan: ^{bir, ikki, uch}

24. TABLE

Jadval yaratishda ishlatiladi.

<TABLE> ... </TABLE>

<TABLE ... > ichida atributlari yoziladi. Atributlari:

BORDER — jadval chegarasi chiziq kengligini ko'rsatish.

Masalan: <table border = «2» ... > ... </table>

ALIGN — gorizontal bo'yicha tekislash.

left — chap chegara bo'yicha tekislash;

right — o'ng chegara bo'yicha tekislash;

center -- markaz bo'yicha tekislash.

Masalan: <table border = «2» align = «center»... > ... </table>

WIDTH, HEIGHT — kengligi va balandligi. Odatda, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: <table border = «2» align = «center» width = «300» height = «100%»... > ... </table>

CELLSPACING — Qo'shni yacheykalar orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: <table border = «2» align = «center» cellpadding = «5»... > ... </table>

CELLPADDING — yacheykalardagi ma'lumot va chiziq chegarasi orasining kengligini ko'rsatish, piksel yoki foizlarda beriladi.

Masalan: <table border = «2» align = «center» cellpadding = «5» cellpadding = «10%» ... > ... </table>;

FRAME — jadvalda qaysi chegaralami ko'rsatish va qaysilarini ko'rinmaydigan qilish;

BGCOLOR — jadval foni rangini ko'rsatish.

Masalan: <table bgcolor = «green» border = «2» align = «center» ... >
... </table>

BORDERCOLOR — jadval chegarasi rangi;

BACKGROUND — jadval foni sifatida tasvirdan foydalanish.

25. TD

<TD>...</TD> — jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

26. TH

<TH>...</TH> — jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

27. TITLE

<TITLE>...</TITLE> — sarlavhani tashkil etadi. Ushbu teglar orasida brauzerda hujjat nomini ko'rsatish mumkin.

28. TR

<TR>...</TR> — jadvalda satming boshi va oxiri.

Jadval satrini aniqlaydi. Odatda, jadvalda <TH> yoki <TD> teglari bilan ishlatiladi.

29. U

<U>...</U> — matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

Masalan: <u> Bir, ikki, uch </u>.

30. UL

...

Markerli ro'yxat yaratish. yordamida beriladi.

Atributlari:

TYPE — marker turini ko'rsatish;

disc — bo'yalgan doira;

circle — bo'yalmagan doira;

square — kvadrat;

COMPACT — matn ko'rinishini ixchamlashtirish.

Masalan: <ul type=square> Bir Ikki Uch

To'rt Besh

Natijasi:

Bir

Ikki

Uch

To'rt

Besh bo'ladi.

1.2 CSS web dasturlash tili haqida ma'lumot va uning imkoniyatlari

CSS - HTMLning qo'shimcha dasturi bo'lib, web masterlar uchun to'liq o'rganish talab qilinadi, bu dastursiz HTML ning o'zi ko'p funktsiya bajara olmaydi.

CSS o'rganish juda oson va qulay dastur, qulayligi hadeb HTML kodlarini qayta-qayta yozavermasdan, bitta yaratilgan qoidani xohlagan matnga, rasmga va hamma narsaga qo'llashingiz mumkin bo'ladi, faqat `id=" "`, `style=" "` yoki `class=" "` kabi atributlarga o'sha qoidalarni nomini kiritsangiz bo'lgani, bemalol ishlatishingiz mumkin bo'ladi. Bu dastur HTML kabi Faqat web sahifa yaratish uchun mo'ljallangandir.

HTML bilan qilib bo'lmaydigan juda ko'p funksiyalar mavjud. Tasavvur qiling, siz bitta website ning 20 ta sahifasini hammasini HTML yordamida tuzdingiz, nihoyat websiteni tayyor holatini sizga web sahifa qilib berish taklifini bergan korxonaga yoki tashkilotga ko'rsatdingiz, tayyor holatini ko'rgach boshida o'zi tanlagan foni, yozuvning o'zi yoki ranglari ozgina yoqmaganini bildirdi va uni boshqasiga o'zgartirishingizni sizdan iltimos qildi (masalan times new roman o'rniga arial) va siz qilishiz kerak bo'lgan narsa quyidagichadir:

1. 20 ta sahifaning har birini `<body bgcolor=" ">`, `` `<basefont />` va hakazo teglarni har bir HTML dokumentdan qidirib topib (nimani o'zgartirish kerak bo'lsa o'sha tegni qidirib topib) hammasiga bitta bitta o'zgartirishni kiritishingizga to'g'ri keladi. Lekin CSSni bilsangiz 20 ta sahifaning hammasini bitta so'z bilan CSS dokumentizda o'zgartirib, o'zgartirgan CSS dokumentizni "Save" qilib saqlashingiz kifoyadir, agar klaviaturada yaxshi ishlasayiz, har qanday elementni o'zgartirish uchun sizni 30 soniyadan ortiq vaqtiz ketmasligi mumkin, hatto 20 ta web sahifaning bironta HTML dokumentlarini ochishning ham hojati yo'qdir.
2. Web sahifaning tez va oson web brauzerda yuklanishi ham juda muhim jihatlardan sanaladi, chunki sizni sahifangiz har xil tezlikka ega Internet foydalanuvchilari tomonidan tashrif buyurilishi mumkin, agar sizni sahifangiz yuklanishi HTML dokumentizda kod va ma'lumotlarning ko'pligini evaziga sekin yuklansa, hali to'liq ochilib bo'lmasidan tashrif buyurayotgan shaxs yopib yuborishi hech gap emas. Biroq siz CSS dokumentizni HTML dokumentiz bilan bitta `<link rel="stylesheet" type="text/css" href="mystyle.css" />` kodi bilan

bog'lab hamma buyruqlarni CSS dokumentga kiritsangiz, barcha 20 ta web sahifangiz uchun o'sha kiritgan bitta CSS dokumentiz xizmat qiladi va natijada HTMLda kam kodlar yozilishiga erishasiz.

3. Shuningdek, hozirda web brauzerlarning mukammal darajada rivojlanishlari oqibatida, sizning web sahifangiz CSS dokumentiga ham web sahifaga tashrif buyuruvchi kirishi mumkindir va istalgan o'zgarishni kiritib sizni web sahifangizni o'zi istalgan holda ko'rish imkoniyatini ham beradi. Masalan ko'zi mayda harflarga uncha o'tmaydigan shaxs siz kiritgan 14pt o'lchamli yozuvni o'ziga qulay qilib 16pt yoki 18pt o'lchamli qilib olishi mumkindir va buning uchun tashrif buyuruvchi ham CSSni yaxshi tushunishiga to'g'ri keladi. CSS - Cascading Style Sheets, HTML web sahifa yaratish dasturiga ancha qulaylik va web sahifalarning matnini mukammal tarzda tuzish uchun qo'shimcha tarzda yaratilgan dasturdir, HTML dan keyin kelib chiqqan. CSS ni HTML bilan bog'lashning uch xil yo'li bo'lib, ikkita yo'li biror HTML dokumentni ichida ishlatilsa, uchinchi yo'li HTML dan mustaqil tarzda "dokument_nomi.css" qilib alohida tuziladi va saqlanadi. HTML dokumenti ichida ishlatiladigan CSS qoidalar o'sha bitta dokumentga tegishli bo'ladi va odatda kichik qoidalar bo'ladi, mustaqil CSS dokument esa juda ko'p ma'lumotlarni o'zida saqlaydi va odatda bitta website ning bir nechta web page lari uchun qo'llaniladi. CSS ni HTML da qo'llash usullarining hammasini ham o'z ishlatilish o'rni, maqsadlari va qulayliklari bor, shuning uchun birini biridan afzal ko'rish yoki solishtirishning ilojisi yo'q, yaxshi web master uchala uslubda ham o'z o'rnini topa bilib ishlatishi lozim bo'ladi. CSS yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. CSS yordamida biz HTML dokumentimizga ko'p, har hil teg va atributlar kiritmasdan web sahifamizga ishlov berishimiz mumkindir, albatta HTML ga kiritiladigan kodlarga o'xshash kodlar CSS da sodda va osonroq holda kiritishingiz kerak bo'ladi. Faqat bitta kiritgan CSS kodni qayta kiritmasdan, o'sha qoidani istalgancha qayta-qayta ishlatish mumkin bo'ladi, hatto boshqa sahifalar uchun

ham.

2. Agarda siz misol uchun biror font turini, rangini, o'lchamini yoki boshqa biror narsani o'zgartirmoqchi bo'lsangiz ham bitta so'z yordamida butun bir web sahifadagi o'sha qoida ishlatilgan HTML dokumentlarni o'zgartira olasiz.

3. HTML da bajarib bo'lmaydigan juda ko'p funksiyalarni ham bu CSS dasturi yordamida bajarishimiz mumkindir. Masalan HTML da tuzilgan oddiy jadvalni CSS bilan ishlov berishimiz mumkin, HTML da border="" atributidan boshqa hech narsa qilib bo'lmaydi.

HTML web sahifamizning strukturasi tuzsa, CSS esa shu strukturaga ishlov beradi, ya'ni HTML yordamida masalan, butun bir matn oddiy qilib yozilsa, CSS da shu matn uchun tuzilgan buyruqlarni HTML dokumentida HTML teglarining atributlarisiz ishlatamiz. CSS ni o'zlashtirish juda oson, HTML ga qaraganda chunki unda buyruqlar HTML chalik ko'p emas, lekin juda systematic. Quyidagi misolda <style type="text/css"> tushuntiriladi.

```
<html>
```

```
<head><title>CSS Darsliklari</title>
```

```
<style type="text/css">
```

```
p {font-family:arial; font-size:14pt; font-style:italic; color:#660000;}
```

```
div {font-family:Courier New; font-size:18px; font-style:oblique; color:#336600;}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<p>Qayerda matnni yangi abzasdan boshlasangiz hamma p lar uchun xuddi shu yozuv o'rinli bo'ladi.</p>
```

```
<div>HTML dokumentizi qayerida <div>... </div> ishlatsangiz u uchun CSS yordamida tuzilgan div buyruqlari o'rinli bo'ladi, Har bir td uchun atribut ishlatib o'tirmaysiz.</div>
```

```
</body>
```

</head>

</html>

CSS da teg va atributlar yo'q, uning o'rnini maxsus kodlar egallaydi va ular selector, property, value deb nomlanadi (ular haqida keyinroq). Quyida CSS ni element va kodlarini ishlatishning to'rt xil uslubini ko'rib chiqamiz va birinchi uchta holatda CSSni HTML dokumenti <head>...</head> qismida ishlatamiz, to'rtinchi uslubni esa <body>...</body> qismida ishlatib ko'ramiz. Quyidagi ushbu to'rt holatni faqat **text** uchun qo'llashni ko'ramiz, lekin istalgan holat uchun ishlatishingiz mumkin.

I) HTML teglari yordamida. HTML dagi barcha teglarni tan oladi, va o'zida quyida tushuntiriladigan id="" va class=" " atributlari yordamisiz HTML dokumentda ishlatish imkoniyatini beradi.

Masalan:

<html>

<head><title>CSS

Darsliklari</title>

<style

type="text/css">

body {background-color:#FF0000;}

p {font-family:arial; font-size:14pt; font-style:italic; color:#660000;}

h6 {font-family:Courier New; font-size:18px; font-style:oblique; color:#336600;}

</style>

</head>

<body>

</body>

</html>

II) HTML ning id=" " atributi yordamida. HTML da deyarli hamma teglar ichida id=" " atributini ishlatishimiz mumkin. Ixtiyoriy text uchun HTML ning

<div>...</div> tegi qulaydir. Bu id=" " atributi CSS dagi element buyrug'ini o'sha HTML teg bilan ulovchi va o'sha teg orasida keluvchi ma'lumot uchun o'rinli qilib belgilovchi atribut hisoblanadi. Ushbu tegning ishlash holatini quyidagi misolda ko'ramiz. Chunki ushbu qoidalar juda muhim va ko'p ishlatiladi.

Misol:

```
<html>
<head><title>CSS                                Darsliklari</title>
<style                                          type="text/css">
#birodar {text-align:center; color:yellow;}
</style>
</head>
<body>
<div id="birodar">Bu matn brauzerda sariq rangda va web sahifa markazida paydo
bo'ladi</div>
</body>
</html>
```

III) HTML ning class=" " atributi yordamida. class=" " - HTML ning ixtiyoriy tegi ichida ishlatilishi mumkin bo'lgan atribut, class=" " atributi qo'shtirnoq'ichidagi qiymati sifatida keladigan so'z CSS da "class selector" bo'lib xizmat qiladi, va u ikki hil qoidaga asosan funktsiya bajaradi. Bitta class selector istalgancha HTML teglar ichida kelishi mumkin:

Birinchisi, class selector oldidan nuqta belgisi "." qo'yiladi, ya'ni quyidagi misolda "birodar" class selector bo'lsa oldida nuqta qo'yilgan, ".birodar" qilib, orada joy tashlanmaydi.

Eslatma: Shu yerda bir narsani ta'kidlash kerak, "birodar" so'zimizning oldidan "." qo'yilsa, class selector bo'ladi, agarda "#" qo'yilsa, id selector bo'ladi, ikkala holatda ham hech qaysi selector nomi son bilan boshlanishi mumkin emas (.1birodar yoki #1birodar), son bilan boshlangan selectorni faqat Internet Explorer

o'qiydi xolos. id va class selectorlarning farqi shundaki, #birodar {} ichidagi qiymatlar faqat bitta teg uchun o'rinli bo'ladi, .birodar {} qiymatlarini esa istalgancha teglar uchun qo'llashimiz mumkindir, ikkalasining ham o'z ishlatilish o'ri, maqsadi va vazifasi mavjud.

Ikkinchisi, HTML ning biror muayyan tegi uchun alohida ishlatish uchun qo'llaniladi. Ya'ni quyidagi misollarga qaraymiz.

Masalan:

```
1)<html>
<head><title>CSS                                Darsliklari</title>
<style                                           type="text/css">
.birodar {text-align:center; color:yellow;}
</style>
</head>
<body>
<div class="birodar">Bu matn browserda sariq rangda va web sahifa markazida
paydo                                           bo'ladi</div>
</body>
</html>
```

```
2)<html>
<head><title>CSS                                Darsliklari</title>
<style                                           type="text/css">
p {font-family:arial; font-size:14pt; font-style:italic; color:#660000;}
p.birodar {font-family:times new roman; font-size:16pt;}
</style>
</head>
<body>
<p>Bu matn birinchi p {} qiymatlarini o'z ichiga oladi, barcha <p>...</p> lar
orasidagi matn shu ko'rinishda paydo bo'ladi. </p><p class="birodar"> Bu matn
```

ikkinchi bo'lib yozilgan p.brodar { } orasidagi qiymatlarni o'zi uchun o'rinli qilib belgilaydi, har qanday <p> tagi ichida class="birodar" kelsa shunday yozuvda paydo bo'ladi.</p>

```
</body>
```

```
</html>
```

IV) HTMLning style="" atributi yordamida. Biz shuningdek HTML dokumentimizning <head>...</head> qismida CSS ni anglatuvchi <style type="text/css">...</style> ni ishlatmasdan turib ham, HTML ning <body>...</body> qismida keluvchi istalgan teg ichida CSS ning elementlarini ishlatishimiz mumkindir. Uning uchun muayyan tegning ichida style=" " atributi kelishi kerak bo'ladi, qo'shtirnoq ichida esa yuqorida ko'rgan { } orasidagi qiymatlar kelishi kerak bo'ladi. Bu turdagi CSS dan foydalanish IN-LINE STYLES deb nomlanadi. Bu holat uchun, hech qanday id yoki class selector ishlatilmaydi. Quyida bitta misol ko'ramiz.

```
<html>
```

```
<head><title>CSS
```

```
Darsliklari</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<p style="font-family:Verdana; font-size:18px; letter-spacing:3px;">Bu matn shunchaki style yordamida tuzilgandir.</p>
```

```
</body>
```

```
</html>
```

HTML- web sahifaning matn strukturasi tuzadi, CSS esa o'sha matn (ramslar, videolar, so'zlar, gaplar, va hamma narsa) HTML qila olmaydigan darajada go'zal qilib formatlaydi va mukammallashtiradi. Bitta CSS dokument bilan bir nechta HTML dokumentlarni nazoratini qo'lga olish mumkin. HTML dokumentlarda kam kodlar yoziladi, natijasizning kod

kiritish

vaqtingiz

tejaladi.

CSS juda qulay va tushunarli, qoidalari kam. CSS - Web masterlar uchun o'rganish albatta kerak.

CSS dan HTML da foydalanishning uch xil yo'li bor, va uchala uslubning ham o'ziga yarashaqulayliklari ko'pdir. Quyida o'sha uchala yo'lni qisqacha ko'rib chiqamiz.

1. INTERNAL: - ICHKI demakdir. HTML dokumentning <head>...</head> qismida huddi quyidagi misolga o'xshab keladi, bu HTML dokumentda nechta <p>...</p> ishlatilsa, hammasi qizil bo'ladi, har birida HTML ning elementini ishlatish shart emas.

Masalan:

```
<html>
<head><title>CSS                                Darsi</title>
<style                                          type="text/css">
p          {          color:          red;          }
</style>
</head>
<body>
<p>Bu          Matn          qizil          rangda</p>
</body>
</html>
```

2.EXTERNAL: - TASHQI demakdir. HTML dokumentdan mustaqil ravishda .css qilib tuziladi, masalan "birinchi.css". Bu dokument alohida NotePadda yoki boshqa maxsus CSS editorlarda tuziladi. HTML dokument bilan quyidagicha bog'lanadi va CSS dokumentda kiritilgan barcha buyruqlar shu HTML dokumentda funktsiya bajaradi, shuningdek bu bitta CSS dokumentni hamma web sahifalarizni <head> qismiga joylab chiqishingiz mumkin bo'ladi, shunda bitta CSS dagi o'zgarish agar istasangiz hamma web sahifalaringizda o'zgaradi.

Masalan:

```
<html>
<head><title>CSS                                Darsi</title>
<link      rel="stylesheet"      type="text/css"      href="birinchi.css"/>
</head>
<body>
</body>
</html>
```

3.IN-LINE: - QATORDA demakdir, ya'ni shunchaki HTML da kod yozilayotganda CSS ning qoidasi bo'lmish style="_" ni yozib matnga ishlov berib ketish. Bu qoidani HTMLda o'rganmaganimizning sababi, buning uchun CSS ni yaxshi tushunish va ishlata bilish kerakligidir. Bu qoidani ishlatish uchun tashqaridan yoki ichkaridan CSS dokumentini HTML bilan bog'lash yoki birlashtirish shart emas.

Misol:

```
<pstyle="color:red">bumatn                                qizil</p>
```

Boshida ta'kidlaganimiz kabi, CSS qoidalarini HTML dokument ichida va undan mustaqil ravishda, alohida dokumentda yaratishimiz mumkindir. Bu darsda, hozircha CSS qoidalarini faqat HTML dokumentning <head> ... </head> ichida ishlatishni ko'rib chiqamiz, buning uchun birinchi o'rinda <style> tegini o'rganib olishimiz kerak bo'ladi.

```
<style>...</style>
```

Bu teg HTML dokumenti ichida boshqa kompyuter dastur tillari qoidalarini ishlatish imkonini beradi. <style> tegi HTML dokumentnig <head> yoki <body> qismida kelishi mumkindir, lekin CSS qoidalari uchun HTMLning <style> tagi <head> qismida kelgani afzalroqdir, chunki HTML kodlariz bilan aralashib ketmasdan tartibli bo'lib ajralib turadi. U quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.

```
<html>
```

```
<head><title>CSS
```

```
Darsliklari</title>
```

```
<style
```

```
type="text/css">
```

```
body{background-color:#FF0000;}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
</body>
```

```
</html>
```

type=" " - <style>...<style> orasida keladigan qoida va funksiyalrning turini ko'rsatadi bu attriburni CSS va JavaScript uchun qo'llashimiz mumkindir, faqat type="text/css" CSS uchun type="text/javascript" JavaScript uchundir. Biz hozircha <style> ichida faqat type="text/css" ni yozishimiz shart bo'ladi chunki dokument qoidasi CSS ligini bildirish uchun JacaScript mavzusiga kelganimizda type="text/javascript" yozamiz.

HTML da o'rganishiz kerak bo'lgan eng muhim qoidalar { } ichida keladigan elementlardir, boshida ta'kidlaganimiz CSS ni HTMLda qo'llashning 4 xil uslubini sekin misollarda tushuntirib ketaveraman, shu maqsadda birinchi bo'lib **BACKGROUND property** ni o'ganamiz. Avval CSS elementlari, qanday qismlardan tashkil topishiga bir nazar solishimiz kerak bo'ladi. Yuqoridagi misolni bir ko'rib chiqamiz.

```
body {background-color:#FF0000;}
```

Bu yerda:

body - selector qismi bo'ladi, tarjimasini **tanlovchi** deganidir, { } dan tashqarida chapdagi har qanday element selector bo'ladi va "{" belgi bilan orasida bitta joy tashlanishi kerak bo'ladi.

background-color - property qismi hisoblanadi tarjimasini xossa deganidir, { } ning orasida keladi, property dan so'ng joy tashlanmagan holda ":" kelishi shart bo'ladi ya'ni background-color:

#FF0000 - value qismi hisoblanadi, tarjimasini qiymat deganidir, ya'ni propertyning

qiymati hisoblanadi, propertyning ikki nuqtasidan keyin joy tashlash ixtiyoriy, tashlamasangiz ham bo'ladi u holda ":" dan keyin value yozilishi kerak bo'ladi, valuedan so'ng esa albatta nuqta-vergul ";" belgisi joy tashlanmagan holda yozilishi kerak bo'ladi, ya'ni background-color:#FF0000; CSS da yana bitta muhim belgi "{ }" hisoblanadi va bu belgi CSS elementlarini o'z ichiga oladi, va biz uchun qulaylik yaratish maqsadida bu belgi quyidagicha ko'rinishda yoziladi, va bu uslubda yozish professional web masterlarga xosdir.

```
body {
background:center;
background-color:#006699;
background-image:url(0002.jpg);
}
```

BACKGROUND

CSS ning qulaylik taraflaridan biri HTML dokumentda deyarli hamma narsaning orqasiga rasm, fon, rang berish imkoniyatini yaratadi. **Background property** lari matnning, web sahifaning va barcha funksiyalarning orqa qismiga effekt berish maqsadida ishlatiladi, background-orqa qism degan tarjimaga egadir. background-color - web sahifaning barcha holatlarida, selectorga qarab matnda orqa qismiga rang berish uchun ishlatiladi. Ranglarni inglizcha nomlanishi, rgb(255,0,) va *hexadecimal* rang kodlari value sifatida kela oladi. Quyida 5 xil teg olingan, siz istalgan tegiz uchun bu qoidalarni ishlatish mumkin.

```
body {background-color:#FF0000;}
h4 {background-color:#6495ed;}
p {background-color:#e0ffff;}
p.bir {background-color:#00ff00;}
div {background-color:#b0c4de;}
a {background-color:yellow;}
```

Hozir yoziladigan html kodni browserda yozib tekshirib ko'ring:

```

<html>
<head><title>CSS                                Darsliklari</title>
<style                                          type="text/css">
body                                           {background-color:#FF0000;}
h4                                             {background-color:#6495ed;}
p                                             {background-color:#e0ffff;}
p.bir                                         {background-color:#00ff00;}
div                                           {background-color:#b0c4de;}
a                                             {background-color:yellow;}
</style>
</head>
<body>
Oddiy          matn          ko'rinishi:<br/>
body {background-color} web sahifaning o'zini orqa fon rangi hisoblanadi va u
#ff0000        hexadecimal        rang        kodi        bilan        belgilangandir.
<h4>Bu teg yordamida yozilgan har qanday text orqasi #6495ed rangda
bo'ladi.</h4>
<p>Yangi abzasdan yozilgan har qanday text orqasi #e0ffff rangda bo'ladi.</p>
<p class="bir">Bu abzas odatiy abzasdan farqliroq holda orqa foni #00ff00 rangda
bo'ladi.</p>
<div>DIV tegi orasida har qanday text kelishidan qat'iy nazar orqa foni #b0c4de
rangda          bo'ladi.</div>
<a href="http://www.yahoo.com">Har qanday yaratadigan linkizni orqa foni
yellow          rangida          bo'ladi.</a>
</body>
</html>

```

background-image - web sahifada har qanday elementning orqasiga rasm yuklash uchun ishlatiladi, lekin <body> tagi uchun ishlatmaganiz ma'qul, chunki CSS ni ba'zi kodlarini qo'llamaydigan hozircha 5% web browserlar bor, lekin uning ham

yechimlari topilish atafasida, qiymatlari:
background-image:none; - "none" tarjimasida hech narsa, hech bir degan ma'nolarni beradi, demak bu kod ishlatilinsa hech qanday rasm yo'q deganidir, ishlatmasangiz ham bo'ladi shundoq ham hech qanday rasm hech bir element orqasiga o'ziz yuklamagunizcha yuklanmaydi, bu kod qo'yilgan rasmni o'chirish uchun qulay, shunday qiymatini o'zgartirsangiz bo'lgani.
background-image:url(rasm_nomi.jpg); - bu property yordamida web sahifaning deyarli barcha narsasiga orqa fon yoki rasm qo'yishimiz mumkindir, faqat rasm manzilini rasm formati (.jpg; .jpeg; .png;) bilan qavs "(rasm_nomi.jpg)" ichida to'g'ri ko'rsatilsa bo'lgani.
Quyidagi holda hamma <h4>...</h4> orasida keladigan matnlarning orqa foni ko'rsatilingandir, siz shuningdek istalgan teg uchun bunday rasmni ishlatish mumkindir. Bu qatorga orqasiga rasm o'rnatilgan CSS kodi:

```
h4 { background-image:url(002.jpg); }  
background-image:inherit;
```

background-repeat - Bu property faqatgina background-image:url(rasm.jpg); ishlatilgandagina ishlatiladi, sababi orqaga qo'yilgan rasmning ko'rinishiga nisbatan beriladigan buyruqdir. Faqat 4 ta qiymatlari bor: repeat, repeat-x, repeat-y, no-repeat. Rasmimizning asl ko'rinishi to'rtinchi katakdadir, ya'ni no-repeat holati, agar HTMLning <body background="002.jpg"> ni ishlatsangiz rasm faqat birinchi katakdagi ko'rinish va qiymatni oladi.
background-repeat: repeat; - orqa fonimiz rasmi gorizontolni va vertikalni ketma-ket joylashib takrorlanadi, agar bu propertyni ishlatmasak ham shu qiymatga erishamiz, chunki repeat default qiymatdir.

background-repeat: repeat-x; - orqa fonimiz rasmi gorizontol yo'nalish bo'yicha bir qator ketma-ket joylashib takrorlanadi, x-bu yerda x o'qi bo'ylab degan ma'noda kelgan.

background-repeat: repeat-y; - orqa fonimiz rasmi vertikal yo'nalish bo'yicha bir qator ketma-ket joylashib takrorlanadi, y-bu yerda y o'qi bo'ylab degan ma'noda kelgan.

background-repeat: no-repeat; - bu qiymat rasmi takrorlamaslik uchun buyruqdir, rasm asl holatida keladi.

background-attachment - bu propertyni misol uchun body tegi uchun ishlatdik, va siz orqa fon rasmini web sahifa matni bilan birgalikda yuqori va quyi qismiga (sichqoncha roligi yordamida) harakatlanishini yoki harakatlanmasligini belgilashingiz mumkin bo'ladi. Bu property faqat background-image:url(rasm.jpg); ishlatilgandagina ishlatish mumkin bo'ladi, chunki o'zi yo'q fonni qanday harakatlantiramiz, agar ishlatmasangiz orqa fon matn bilan birgalikda harakatlanadi.

background-attachment:scroll; - scroll pastga va tepaga harakatlantirish degan ma'noni beradi, va bu qiymat default qiymatdir, ishlatmasangiz ham rasm matn bilan birga harakatlanadi.

background-attachment:fixed; - fixed qat'iy belgilangan degan ma'noni beradi, ya'ni siz bu qiymat yordamida orqa fon rasmini harakatlantirmasligingiz mumkin bo'ladi.

background-position - bu property bizga orqa fon rasmimizni joylashuv o'rnini belgilaydi va faqat rasm yuklatilganda va background-repeat: no-repeat; bilan birga ishlatiladi, chunki bu qiymat rasmning asl o'zini beradi. Qiymatlari quyida ko'rsatilingandir:

background-position: x% y%; - x va y larning o'rnida ixtiyoriy son bo'lishi mumkin faqat foiz qiymatida, birinchi yozilgan qiymat gorizontal ya'ni x o'qi yo'nalishida hisoblanadi va chap tarafga nisbatan rasmni qancha foiz qilib ko'rsatilsa o'shancha uzoqlashadi, y esa orqa fonimizni yuqoriga nisbatan uzoqlashtiradi. Foiz belgisi % qo'yilishi shart, aks holda pixel o'lchamda hisoblab yuboradi. Birinchi chap tarafdin gorizontal uzoqlashtirish qiymati x%, keyin esa yuqoridan vertikal y% uzoqlashtirish qiymati yoziladi va ular orasida joy

tashlanishi kerak (x%_y%). Quyida (a) misolda background-position: 10% 20%; qilib olingan, to'liq CSS kodi:

```
.a { background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: 10% 20%; }
```

background-position: x y; - x va y larning o'rnida ixtiyoriy son bo'lishi mumkin faqat pixel qiymatida, birinchi yozilgan qiymat gorizontal ya'ni x o'qi yo'nalishida hisoblanadi va chap tarafga nisbatan rasmni qancha pixel qilib ko'rsatilsa, o'shancha uzoqlashadi, y esa orqa fonimizni yuqoriga nisbatan uzoqlashtiradi.

Pixel belgisi (px) qo'yilishi shart emas. Birinchi chap tarafdin gorizontal uzoqlashtirish qiymati (x) keyin esa yuqoridan vertikal (y) uzoqlashtirish qiymati yoziladi va ular orasida joy tashlanishi kerak (x_y). Quyida misolda background-position: 10 20; qilib olingan, ya'ni chap tarafda 10 pixel yuqoridan esa 20 pixel joy tashlash uchun buyruq, bu qoidani ba'zi browserlar o'qimaydi, to'liq CSS kodi:

```
.b {  
background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: 10 20; }
```

background-position: left top; - chap-yuqori degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni chap va yuqoriga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, hech qanday pixel yoki foiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (left_top). Bu qiymat yozilmasa ham bo'ladi, chunki bu qiymat default qiymat hisoblanadi. Quyida (c) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagichadir:

```
.c { background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: left top; }
```

background-position: left center; - chap-markaz degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni chap va markazga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, hech

qanday pixel yoki foiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (left_center). Quyida (d) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagicha:

```
.d {  
background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: left center; }
```

background-position: left bottom; - chap-quyi degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni chap va quyi qismga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, hech qanday pixel yoki foiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (left_bottom). Quyida (e) misolda bu holat ko'rsatilgan:

```
.e {  
background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: left bottom; }
```

background-position: right top; - o'ng-yuqori degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni o'ng tarafga va yuqoriga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (right_top). Quyida (f) misolda bu holat ko'rsatilgan:

```
.f {  
background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: right top; }
```

background-position: right center; - o'ng-markaz degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni o'ng tarafga va markazga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (right_center). Quyida (g) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagicha:

```
.g {
```

```
background-image:url(002.jpg);
```

```
background-repeat:no-repeat;
```

```
background-position: right center; }
```

background-position: right bottom; - o'ng-quyi degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni o'ng taraf va quyi qismga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (right_bottom). Quyida (h) misolda bu holat ko'rsatilgan:

```
.h {
```

```
background-image:url(002.jpg);
```

```
background-repeat:no-repeat;
```

```
background-position: right bottom; }
```

background-position: center top; - markaz-yuqori degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni markazda yuqoriga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, hech qanday pixel yoki foiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (center_top). Quyida (i) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagichadir:

```
.i {
```

```
background-image:url(002.jpg);
```

```
background-repeat:no-repeat;
```

```
background-position: center top; }
```

background-position: center center; - markaz-markaz degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni gorizontal va vertikal yo'nalish bo'yicha markazda qilib belgilash uchun ishlatiladi, hech qanday pixel yoki foiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (center_center).

Quyida (j) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagichadir:

```
.j {
```

```
background-image:url(002.jpg);
```

```
background-repeat:no-repeat;
```

```
background-position: center center; }
```

background-position: center bottom; - markaz-quyi degan tarjimaga ega, ya'ni orqa fonimizni markazga va quyi qismga yopishgan holda belgilash uchun ishlatiladi, hech qanday pixel yoki foyiz belgilari qo'yilmaydi, shunchaki so'zlar yozilsa bo'lgani, va orasida joy tashlanishi shart bo'ladi (center_bottom). Quyida (k) misolda bu holat ko'rsatilgan va to'liq CSS kodi quyidagicha:

```
.k {  
background-image:url(002.jpg);  
background-repeat:no-repeat;  
background-position: center bottom;}
```

background - bu property yuqorida ko'rsatilgan hamma qiymatlarni umumiy holda bitta qilib yozib olish uchun qulaylik yaratish maqsadida ishlatiladi, masalan ushbu CSS kodga e'tibor bering:

```
background: #ffffff url(002.jpg) no-repeat center center, bu holda orqaga qora rang berib, rasmni asl holatini yuklab, keyin gorizontal va vertikal yo'nalish bo'yicha markazga joylayapti. ushbu holat yuqorida (l) misolda ko'rsatilgan.
```

Kiritgan CSS qiymatlarizni HTML o'zi aftomatik tarzda o'qiydi va nima demoqchiekanligizi qiymatlardan ajrata oladi. Quyida to'liq CSS kodi berilgan:

```
.l { background: #ffffff url(002.jpg) no-repeat center center;}
```

1.3 JavaScript web dasturlash tili imkoniyatlari va uning dizayn shablonlari yaratishda ishlatilishi.

JavaScript - Netscape firmasi tomonidan ishlab chiqilgan scriptlardan tuzilgan yangi tildir. JavaScript yordamida siz ajoyib Web saxifalar yaratishingiz mumkin. JavaScript yordamida nimalar qilish mumkinligini ko'rasiz va hattoki qanday qilinishini bilib olishingiz mumkin. JavaScript - bu Java emas.

Ko'pchilik odamlar JavaScript - bu xuddi Javaning o'zi deb bilishadi, chunki ularning nomi bir xillikka ega. Haqiqatda esa bunday emas. Xozircha bu tillar orasidagi farqlarning barchasini ko'rsatib o'tish ortiqcha deb o'ylayman, shunday

ekan JavaScript bu Java emasligini esda tutsangiz bas.JavaScriptni ishlatish(zapusk).

JavaScriptda yozilgan scriptlarni chiqarish uchun nima qilish zarur?Sizga JavaScript bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan brauzer talab qilinadi.Masalan, Netscape Navigator (2.0 versiyasidan boshlab) yoki Microsoft Internet Exploler (MSIE - 3.0 versiyasidan boshlab). Bu brauzerlar keng qo'llanilib boshlangandan boshlab, ko'pchilik odamlar JavaScript tilida scriptlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Albatta bu berilgan dasturni o'qishdan oldin siz HTML tilining asoslari bilan tanishgan bo'lishingiz shart. HTML tili haqida Yahoo qidirish serverida "HTML" kalit so'zi bo'yicha qidiruvni tashkil qilish kerak. HTML - Sahifada JavaScriptni joylashtirish. JavaScript ning script kodlari HTML sahifada to'g'ridan to'g'ri joylashtiriladi. Buning qanday qilinishini ko'rish uchun quyidagi oddiy misol orqali ko'rib chiqamiz:

```
<HTML>
```

```
<BODY>
```

Bu oddiy HTML xujjat.

```
</BR>
```

```
<script language="JavaScript">
```

```
document.write ("Bu esa JavaScript")
```

```
</script>
```

```
<BR>
```

Yana HTML.Xujjat.

```
</BR>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

Bir qarashda bu misol oddiy HTML dokumentni eslatadi. Birgina bu erda yangi konstruktsiya:

```
<script language="JavaScript">
```

```
document.write ("Bu esa JavaScript")
```

```
</script>
```

Bu haqiqatan xam JavaScript kodi. Bu skriptning kandy ishlashini kurish uchun joriy misolni HTML fayli sifatida yozib oling va brauzerga yuklang.

Bu esa usha fayl bajarilishining natijasi (Agar JavaScriptni qo'llab-quvvatlovchi browserdan foydalansangiz sizda 3 satr buladi):

Bu oddiy HTML xujjat.

Bu esa JavaScript

Yana HTML.Xujjat.

SHuni aytish kerakki, berilgan skript unchalik foydali emas, buni HTMLning "xaqiqiy" tilida yozganda ham bular edi.

Biz shunchaki <script> tegining belgisini ko'rib chiqdik.<script> va </script> teglari orasidagi barcha narsalar JavaScript asosiy buyruqlardan tashkil topadi, bulardan biri document.write buyrugini ishlatilishini ko'rishingiz mumkin. document.write buyrug'i qachonki joriy dokumentga(hujjatga) biror narsa yozish kerak bo'lsa ishlatiladi. Demak, bizning kichkina dasturimiz HTML dokumentda " Bu esa JavaScript " frazasini yozadi.

JavaScriptni qo'llab-quvvatlamaydigan brauzerlar.

Agar brauzer JavaScriptni qabul qilmasa, buday sahifa qanday ko'rinishda bo'ladi. JavaScriptni qo'llab-quvvatlamaydigan brauzerlar <script> tegini "tanimaydi". Ular buni oddiy matn sifatida chop qiladi. Boshqacha qilib aytganda bizning dasturimizda keltirilgan JavaScript kodi HTML dokumentdan to'g'ri markazida paydo bo'ladi. Albatta bu bizning maqsadlarimizga to'g'ri kelmaydi. Bu hol uchun maxsus usul mavjudva bunda kirish skript kodi brauzerning eski versiyalaridan berkitiladi. Buning uchun HTML ning <!--> komentariya tegi ishlatiladi. Natijada bizning kirish kodimizning yangi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

```
<HTML>
```

```
<BODY>
```

```
<BR>
```

Bu oddiy HTML dokument.

```
</BR>
```

```
<script language="JavaScript">
```

```
<!-- from old browsers>
```

```
document.write (" Bu esa JavaScript")
```

```
</script>
```

```
<BR>
```

Yana HTML dokument.

```
</BR>
```

```
</BODY>
```

```
</HTML>
```

Brauzer JavaScriptni qo'llab-quvvatlamagan holda quyidagicha chop qilar edi:

Bu oddiy HTML dokument.

Yana HTML dokument.

Brauzer JavaScriptni qo'llab-quvvatlamagan holda va HTML ning kommentariya tegi yuklanganda quyidagicha chop qilar edi:

Bu oddiy HTML dokument.

```
document.write ("Bu esa JavaScript!")
```

Yana HTML dokument.

Iltimos, shunga e'tiboringizni qaratingki, siz JavaScriptning dastlabki kodini to'la ravishda berkitish olmasiz.

HODISALAR.

Hodisalar va ularni ishlab chiqaruvchilar JavaScript tilida dasturlashtirishning eng zarur qismi hisoblanadi. Hodisalar foydalanuvchining u yoki bu harakatlaridan tashkil topadi. Agar u qaysidir tugmani bossa, murojaatini kesib o'tsa, "Mouse Over" hodisasi yuz beradi. Hodisalarning bir necha turlari mavjud. Biz JavaScript dasturimizda ulardan bir nechtasini bajarishimiz mumkin va buni hodisalarni ishlovchi maxsus dastur yordamida amalga oshirishimiz mumkin. Demak, tugmachani bosish orqali tushib ketuvchi oyna hodisasini yaratish mumkin. Bu shuni anglatadiki, Click - bosish xodisasi bilan oyna yaratish reaksiyasi bo'lishi kerak.

Joriy vaqtda biz ishlatishimiz kerak bo'lgan dastur - hodisalarni ishlab chiqaruvchi OnClick deb ataladi. Va u kompyuterga hodisa ro'y berganda nima qilish kerakligini xabar beradi.

Berilgan misol bir nechta yangi xususiyatlarga ega, ularni tartib bo'yicha ko'rib chiqamiz. Birinchi yangi xususiyat bu `OnClick="alert('Y0')"` bo'lib, u `<input>` tegiga tegishli. Aytib o'tganimizdek, bu tugmani bosganingizda nima sodir bo'lishini aniqlaydi. SHu tariqa, agar Click hodisasi yuz beradigan bo'lsa, kompyuter `alert(Y0)` chaqirig'ini bajarishi kerak. Buning o'zi JavaScript tilidagi kodga misol bo'ladi.

Alert funksiyasi tushuvchi darchalarni hosil qilish imkonini beradi. Uni chaqirishda siz qavslar ichiga biror satr berishingiz kerak. Bizning holatda bu 'Y0'. Va bu xuddi shu matn tushayotgan darchada paydo bo'ladi. SHu tariqa, o'quvchi tugmachani shiqirlatgan paytda, bizning script 'Y0' matnli darcha hosil qiladi.

Berilgan misolda bir qancha chalkashliklar tug'ilishi mumkin: biz `document.write()` buyrugida juft qo'shtirnoq, `alert()` konstruktsiyasida esa birlik qo'shtirnoq ishlatdik. Nega? Ko'pchilik hollarda 2 ta holdan ham foydalanish mumkin. Biroq, so'nggi misolda biz `OnClick="alert ('Y0')"`da birlik va 2 lik qo'shtirnoq ishlatdik. Agar biz `OnClick="alert ("Y0")"` deb ishlatganda kompyuter buday scriptga tushunmagan bo'lar edi va qaysi konstruktsiya `OnClick` funksiyasiga tegishli, qaysisi tegishli emasligini aniqlay olmasdi. SHuning uchun bunday hollarda 2 ta qo'shtirnoqturini ishlatishga majbursiz. Qo'shtirnoqni qanday tartibda ishlatishingiz muhim rol o'ynamaydi, dastlab ikkilik qo'shtirnoq, so'ngra birlik qo'shtirnoq va aksincha. Ya'ni siz quyidagicha yozishingiz mumkin: `OnClick='alert ("Y0")'`.

1.4 Shablonlarni tayyorlashda JQuery kutubxonasing imkoniyatlari

JQuery - bir JavaScript-kutubxona JavaScript, HTML va CSS o'zaro ajratilgan.

JQuery orqali nima qilish mumkin?

1. Har qanday elementni DOM (hujjat ob'ekt model) qilish va faqat ular ustida ishlash emas balki, ularni manipulyatsiya qilish.

2. Voqealar bilan ishlash.
3. Boshqa ko'rgazmali ta'sir amalga oshirish oson.
4. AJAX bilan ishlash (sahifa qayta yuklamasdan server bilan muloqot qilish imkonini beradi, texnologiyasi juda foydali).
5. JavaScript foydalanuvchi interfeysi elementlari yaratish uchun Plug-ins katta raqami bor.

Jquery qanday ishlaydi?

Birinchidan ishlab chiquvchilarning saytida kutubxonahtml-sahifalarda o'zi yuklab uni hal qiladi. Endi JQuery html-sahifasiga ulanish kerak bo'ladi. U yerda HTML teg tashqi yozuv fayllar ulanish uchun mas'ul bo'lgan <script>, html. Html-sahifa, bu yorlign'i qo'shish (bir xil sahifa script.js vazifalari oyna bilan bog'liq) kerak

<html>

<head>

<title>jQuery</title>

<script type="text/javascript" src="jquery-1.2.6.js"></script>

<script >

JQuery:

</script>

</head>

<style>Css:

</style>

<body>

</body>

</html>

Fayl nomiga e'tibor bering. Bu kutubxona jquery-1.2.6.js foydalanadi, lekin siz bir yangi versiyasini yuklab olishingiz mumkin, lekin jihozlar, biroq sizda farq qilishi mumkin. Keling, bu narsa qanday amalga oshirilishini ko'rib

chiqaylik.Html-sahifada, bizda uch quti (div-ni) va uch tugmalar bo'lishi kerak:

```
<html>
  <head>
    <title>jQuery</title>
    <script type="text/javascript" src="jquery-1.2.6.js"></script>
    <script >
      jQuery:
    </script>
  </head>
  <style>
    Css:
  </style>
  <body>
    <h2> jQuery da effektlar</h2>
    <div id="kv1" >1</div>
    <div id="kv2" >2</div>
    <div id="kv3" >3</div>
    <button onclick="addEffect1()">Show() Ko`rinishi</button>
    <button onclick="addEffect2()">SlideDown()Ko`rinishi </button>
    <button onclick="addEffect3()">Animate() Ko`rinishi </button>
  </body>
</html>
```

Ko'z chizilgan va CSS bilan bir to'rtburchaklar ko'rinmas qiling. Kod css:

```
#kv1, #kv2, #kv3{
  width:80px;
  height:100px;
  float:left;
  background:red;
  margin:5px;
```

```
color:white;
display:none;
}
```

Siz tugmani bosganingizda sahifada **script da** yozish kodi vazifalari haqida qiziqarli qism:

```
function addEffect1(){
    $('#kv1:hidden').show();
}
function addEffect2(){
    $('#kv2:hidden').slideDown('slow');}
function addEffect3(){
    $('#kv3:hidden').show().animate( {
        fontSize:"36px"
    }, 3000 );}
```

Funksiya **addEffect1 ()** ko'rguvchi \$ (dollar belgisi) va bu jQuery ekanligini tushunadi va keyin u (" #kv1:hidden ") hidden (ko'rinmas) yashirin mulkga ega va id = "kv1" element topish kerak, deb tushunadi. Keyin .show()-ko'rish bu element paydo qilish uchun ishlatiladi.

Funksiya **addEffect2 ()** ko'rguvchi \$ (dollar belgisi) va bu jQuery ekanligini tushunadi va keyin u (" #kv2:hidden ") hidden (ko'rinmas) yashirin mulkga ega va id = "kv2" element topish kerak, deb tushunadi. Keyin .slideDown-ko'radi ("slow") ("sekin") top-pastga (slideDown) ko'rsatiladi bu elementni sekin paydo qilish uchun ishlatiladi.

Funksiya **addEffect3 ()** ko'rguvchi \$ (dollar belgisi) va bu jQuery ekanligini tushunadi va keyin u (" #kv3:hidden ") hidden (ko'rinmas) yashirin mulkga ega va id = "kv3" element topish kerak, deb tushunadi.

Keyin .animate({fontSize:"36px"} , 3000 shrift hajmi 36 piksel (Shrift: "36px") ga

3 soniya (3000) uchun) animatsiya ko'rishda ishlatiladi.

Misolni **Index.html** sifatida saqlab olib ishlatishingiz mumkin:

```
<html>
<head>
  <title>jQuery</title>
  <script type="text/javascript" src="jquery-1.2.6.js"></script>
  <script >
function addEffect1(){
  $("#kv1:hidden").show();}
function addEffect2(){
  $("#kv2:hidden").slideDown("slow");}
function addEffect3(){
  $("#kv3:hidden").show().animate( {
    fontSize:"36px"
  } , 3000 );
}
</script>
</head>
<style>
#kv1, #kv2, #kv3{
  width:80px;
  height:100px;
  float:left;
  background:red;
  margin:5px;
  color:white;
  display:none;}
</style>
```

```
<body>
  <h2> jQuery da effektlar</h2>
  <div id="kv1" >1</div>
  <div id="kv2" >2</div>
  <div id="kv3" >3</div>
  <button onclick="addEffect1()">Show() Ko`rinishi</button>
  <button onclick="addEffect2()">SlideDown()Ko`rinishi </button>
  <button onclick="addEffect3()">Animate() Ko`rinishi </button>

  </body>
</html>
```

I bob yakuniga ko`ra xulosalar: Ushbu bob zamonaviy web texnologiyalar va ular haqida ma'lumot deb nomlanadi. Zamonaviy web texnologiyalarva ular haqida qisqacha nazariy ma'lumot yozdim, Html tili imkoniyatlari, CSS tili imkoniyatlario'zi nima ekanligini va undan qanday foydalanish mumkinligi haqida tushuncha berdim, shu jumladan JavaScript tili va uning imkoniyatlari haqida ham nazariy ma'lumotlar yozib o'tildi, umuman olganda zamonaviy web texnologiyalar nima ekanligi tushuntirib o'tilgan.

II. Universitet informatison tizimi saytining dizayn shablonlarini (CSS) yaratish.

2.1 Dastur obyektleri

Dizayn shablonlari tizimdan foydalanuvchi e'tiborini tortish maqsadida hamda foydalanuvchiga qulaylik yaratish maqsadida yaratiladi. Universitet informatison tizimi saytining dizayn shablonlarini HTML va CSS tili web dasturlash imkoniyatlaridan foydalanib yaratganimizda, quyidagilar dastur obyektleri vazifasini bajaradi. Ya'ni dizayn shablonlarning obyektini formalar, menyular, jadvallar, framelar kabilar tashkil etadi.

MENUlar haqida

`<MENU>` tegi aktivlashmagan ro'yxatni yaratish uchun ishlatiladi. Bu teg eski bo'lib, brauzerlar bilan muvofiqligi uchun qoldiriladi. Yopilish tegi mavjud, `</MENU>`. **Xususiyatlari:**

Title - sarlavha yaratadi.

Disabled - 1 deb belgilanganda matn kul rang bilan ko'rsatiladi.

`<menu disabled=1 title="Menyu">`

`` Birinchi menyu elementi

`` Ikkinchi menyu elementi

`</menu>`

Natijasi:

Birinchi menyu elementi

Ikkinchi menyu elementi

Freym bu — bir necha veb sahifalarni bitta veb sahifada birlashtirish.

Saytlar har xil bo‘lishi mumkin, misol uchun, 3 ta ustunli 3 ta qatorli, 2 ta ustunli, 2 qatorli 2 ustunli,..., lekin hozirgi kunda bunday ko‘rinishdagi saytlar o‘z o‘rinlarini noodatiy strukturaga ega saytlarga bo‘shatib bermoqda. Shunday bo‘lsa ham, bunday «**klassik**» usul doimo o‘z ommabopligini saqlab qolmoqda.

3 ta ustunli 3ta qatorli sayt:

1 - қатор		
2 - қатор		
1 - устун	2 - устун	3 - устун
3 - қатор		

2 qatorli 2 ustunli sayt:

1 - қатор	
2 - қатор	
1 - устун	2 - устун

Bunday shakldagi saytlarni bir necha usullarda qilish mumkin: jadvallar, bloklar va freymlar orqali. Freymlarda, har bir qism alohida yaratilib, keyin birlashtiriladi. Keling misol ko‘ramiz, quyidagi kodni «**frame.html**» deb saqlang.

```

<html>
<head>
    <title>Frame misol</title>
</head>
<frameset cols="30%,70%">
    <frame src="chap.html">
    <frame src="asosiy.html" name="asosiy">
    <noframes>Sizning brauzeringiz freymlarni qabul
qilmaydi</noframes>
</frameset>
</html>

```

Bu kod orqali, veb sahifamizning karkasini freym yordamida yaratdik, u quyidagicha ko‘rinishda bo‘ldi.

30%	70%
Chap.html	Asosiy.html

Ko'rib turganingizdek, veb sahifa ikkiga bo'lindi, birinchi qism umumiy qismning **30%** egallab, bu qismga «**chap.html**» degan veb sahifa javob beradi, ikinchi qism esa umumiy qismning **70%** egallab, bu qismga «**asosiy.html**» veb sahifasi javob berar ekan.

E'tibor bergan bo'lsangiz, kodda «**body**» tegi ishtirok etmayapti, uning o'rniga «**frameset**» tegi sahifa tanasiga javob bermoqda.

Endi «**chap.html**» sahifasini kodini yozamiz.

```
<html>
<head>
    <title>Chap</title>
</head>
<body>
<a href="asosiy.html" target="asosiy">Asosiy sahifa</a><br>
<a href="ikkinchi.html" target="asosiy">ikkinchi sahifa</a>
</body>
</html>
```

Bu kodda 2 ta havola mavjud(asosiy.html, ikkinchi.html), bu sahifalarni ham yaratamiz.

asosiy.html

```
<html>
<head>
    <title>Chap</title>
```

```
</head>
<body>
<h2>Asosiy sahifa</h2>
</body>
</html>
```

ikkinchi.html

```
<html>
<head>
<title>Chap</title>
</head>
<body>
<h2>Ikkinchi sahifa</h2>
</body>
</html>
```

Endi, «**frame.html**» hujjatini ishga tushirsangiz, 2 ta ustunli sahifa hosil bo‘ladi, chap tomondagi «**Asosiy sahifa**» yozuvini bossangiz, o‘ng tomonda «**asosiy.html**» sahifasi yuklanadi. Agar chap tomondagi «**Ikkinchi sahifa**» yozuvini bossangiz, o‘ng tomonda «**ikkinchi.html**» sahifasi yuklanadi va chap tomon o‘zgarmasdan qoladi.



Demak bunda, uchta veb sahifa(**chap.html, asosiy.html, ikkinchi.html**) bitta veb sahifada(**frame.html**) birlashtirildi. To‘liq veb sahifani ishga tushirish uchun «**frame.html**» sahifasi yuklanadi, bu sahifada saytning karkasi qilingan. **chap.html** sahifada ikkita havola yaratildi(**asosiy sahifa, ikkinchi sahifa**) va ikkita sahifani chaqirish mumkin bo‘ldi.

Eng asosiysi qanday qilib, chap tomondagi sahifadagi havola bosilsa, o‘ng tomonda sahifa o‘zgarmoqda. Bu ish ikkita atribut orqali amalga oshirilmoqda, «**name**» va «**target**». **Frame.html** sahifada, «**frame**» tegining «**name**» atributi orqali «**asosiy.html**» sahifa nomlanmoqda(asosiy), undan so‘ng **chap.html** sahifada yaratilayotgan havolalarning(a tegi orqali) «**target**» nomli atributiga, aynan qaysi oynada ochilishi kerak(**asosiy.html**).

frame.html sahifasidagi teglarni:

1. **<frameset>...</frameset>** — yaratilayotgan freym strukturasi hosil qiluvchi teg, uning atributlari:

border — freymlar oralig‘idagi chegaralar qalinligi.

bordercolor — freymlar oralig‘idagi chegaralar rangi.

cols — freymnlarni ustunlarga bo‘lish, har bir ustun qanday o‘lchamdaligi beriladi(foiz yoki pikselda).

frameborder — freymlar orasiga ramka qo‘yish kerak yoki kerak emasligini aniqlash, qiymati: no, yes.

rows — qator ko‘rinishidagi freymlar hosil qilish va ularni o‘lchamini berish.

2. **<frame>...</frame>** — har bir alohida freymni sozlash, bu teg nechta bo‘lsa, shuncha veb sahifa bitta freymga qo‘shilayotgan bo‘ladi. Atributlari:

bordercolor — chegara rangini berish.

frameborder — freymlar orasiga ramka qo‘yish kerak yoki kerak emasligini aniqlash, qiymati: no, yes.

name — freym uchun takrorlanmas nom berish.

noresize — foydalanuvchi tomonidan freym o'lchamini o'zgartirish mumkin emas.

scrolling — freymlar ekranga sig'masa, paydo bo'ladigan aylantirgich holatini o'rnatish, qiymatlari:

*auto — kerak bo'lsa, brauzer tomonidan aylantirgich hosil qilinadi.

*no — aylantirgich hosil bo'lmaydi.

*yes — freymlar ekranga sig'sa, sig'masa ham aylantirgich paydo bo'ladi.

src — freym sahifasini adresini, qaysi veb sahifani qo'shishni ko'rsatish.

3. **<noframes>...</noframes>** — agar brauzer tomonidan freymlar ishlatilishiga blok qo'yilgan bo'lsa, yoki brauzer umuman freym tushunchasini tanimasa, bu teg ichidagi yozuv brauzerga chiqadi.

YUqoridagi tushunarsiz teglar bilan tanishib chiqdik, endi ham ustun ham qatorli freym hosil qilishni kodini va natijasini ko'rsataman, manimcha tushuntirishga hojat bo'lmadi.

```
<html>
```

```
<head>
```

```
  <title>Ustun vs Qator</title>
```

```
</head>
```

```
<frameset rows="15%,70%,15%">
```

```
<frame src="top.html">
```

```
<frameset cols="25%,75%">
```

```
<frame src="menu.html">
```

```
<frame src="content.html" name="main">
```

```
</frameset>
```

```
<frame src="footer.html">
```

```
<noframes>Sizning brauzeringiz frame tushunchasini tanimaydi</noframes>
```

```
</frameset>
```

</html>

1 - қатор - 15%		top.html	
2 - қатор- 70%			
menu.html		content.html	
1 - устун		2 - устун	
3 - қатор - 15%		footer.html	

<frame> tegi ramkani tasvirlash uchun ishlatiladi. Yopilish tegi mavjud</frame>.

Xususiyatlar

Src - Ob'ekt (sahifa) manzili.

<frame src="URL"> Freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatni URLmanzili.

Misol:

<HTML>

<HEAD><TITLE>Fraymega misol</TITLE></HEAD>

<FRAMESET COLS="30 %, *">

<FRAME SRC="leftframe.html">

<FRAME SRC="rightframe.html">

</FRAMESET>

</HTML>

<frame name="name"> Freym nomini aniqlash.

<frame marginwidth=#> Freymning o'ng va chap tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

<frame marginheight=#> Freymning yuqori va quyi tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

<frame scrolling=VALUE> Foydalanuchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki) ni boshqarish imkonini berish.

<framenoresize> Freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlash.

<frameset></frameset> Hujjatda freym yaratish.

<frameset rows="value,value"> Freymning gorizontal bo'yicha o'lchamlar nisbati.

<frameset cols="value,value"> Freymning vertikal bo'yicha o'lchamlarnisbati.

<noframes></noframes> Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi.

2.2. Sahifada ishlatiladigan element shablonlari

Sahifada ishlatiladigan element shablonlariga ham jadval, formalar menyular kabilarni keltirish mumkin.

Formalar

<FORM> tegi shakl yorlig'i nazorat uchun bir konteyner bo'lib, ma'lumotlarni kiritishva serverga jo'natish imkonini beradi. Yopilish tegi mavjud **</Form>**.**Xususiyatlari:**

Action- Forma shakllarga ishlov bo'lgan manzilini bildiradi.

Method - Servis uchun yetkazib forma shaklini berish usuli. Ikki mumkin bo'lgan qiymatlari bor - Get va Post.

Name - forma shakl nomi script tillarida uning elementlari kirishi uchun.

```
<form action="http://tami.uz/">  
<input name="edit1" size="20" value="terminator">  
<input type="submit">  
</form>
```

Misol:

terminator	Submit
------------	--------

`<form></form>` forma hosil qilish.

`<select multiple name="NAME" size=20></select>` Yo`lakchali menyu yaratish.

`<option>`-menyuning har bir alohida elementini ko`rsatish.

`<select name="NAME"></select>` Yo`lakchasiz menyu yaratish.

`<textarea name="NAME" cols=40 rows=8></textarea>`- Matn kiritish uchun ko`p satrli maydon yaratish

`<input type="checkbox" name="NAME">` Bayroqchalar (checkboxes) hosil qilish.

`<input type="radio" name="NAME" value="x">` Ulagich (radio) hosil qilish.

`<input type="text" name="foo" size=20>` matn kiritish uchun satr hosil qilish.

`<input type="submit" value="NAME">` "qabul qilish" tugmasini hosil qilish.

`<input type="image" border=0 name="NAME" src="name.gif">` "qabul qilish" tugmasi uchun tasvirdan foydalanish.

`<input type="reset">` "Bekor qilish" tugmasini hosil qilish.

Jadvallar haqida.

Jadvallar, saytni tartibli bo`lishini ta'minlab beradi, shuning uchun ko`p saytlarning asosini aynan jadvallar tashkil qiladi. Jadval yaratishda biz ko`rib o`tadigan teglarning hammasini ishlatish shart emas, bu faqatgina to`liq teglar ro`yxati. Ba`zi teglarni ishlatmasdan, ular bajaradigan ishlarni boshqa teglarning atributlarida ham qilsa bo`ladi.

Jadvallar yaratishda asosan `<table<`, `<tr<`, `<td>` teglaridan foydalaniladi, lekin quyida bulardan boshqa teglar ham ko`rsatilgan, bular qonun-qoidali qilib jadval yaratuvchilar uchun kerak bo`ladi.

Demak, jadvallarga oid misol html kodini keltiraman.

```
<html>
<head><title>Table of Table</title></head>
<body>
<table border="2" align="center" width="100%" cellspacing="0"
cellpadding="5">
<thead align="center">
<caption>Manchester united o'yinchilar</caption>
<colgroup width="40%"></colgroup>
<colgroup span="2"><col width="50%"><col width="10%"></colgroup>
<tr bgcolor="red">
<th width="50">Ismi</th>
<th width="70">Familiyasi</th>
<th width="30">Raqami</th>
</tr>
</thead>
<tbody align="center">
<tr bgcolor="orange">
<td>Phil</td>
<td>John</td>
<td>4</td>
</tr>
<tr bgcolor="orange">
<td>Juan</td>
<td>Mata</td>
<td>8</td>
</tr>
<tr bgcolor="orange">
<td>Chris</td>
<td>Samlling</td>
<td>12</td>
</tr>
</tbody>
<tfoot>
<tr bgcolor="orange">
<td>Ashley</td>
<td>Young</td>
<td>18</td>
</tr>
</tfoot>
</table>
```

</body>

</html>

Teglar soni biroz ko‘proq va chalkashliklar ham yo‘q emas, demak, notanish teglar quyidagilardan iborat:

1. **<table>...</table>** — jadval yaratuvchi teg. Bu teg orqali, jadval yaratilishi boshlanadi, keyin keladigan barcha teglar aynan shu tegni ichida bo‘lishi lozim, bu teg quyidagi atributlarga ega.

align — jadval joylashuvini o‘rnatish, quyidagi qiymatlari mavjud:

left — jadvalni chap tomonga tekislash;

center — jadvalni markazga tekislash;

right — jadvalni o‘ng tomonga tekislash.

background — jadval foniga qo‘yiladigan rasmni ko‘rsatish, rasm adresini berish lozim,

<table background=»rasm.png»>...</table>

bgcolor — jadval foniga biror rang berish.

<table bgcolor=»black»>...</table>

border — jadval ramkasi qalinligini belgilash, pikselda qiymat beriladi,

<table border=»3"»>...</table>

bordercolor — jadval ramkasini rangini berish.

cellpadding — jadval chegarasidan yozuvgacha bo‘lgan masofani o‘rnatish, agar o‘rnatilmasa, yozuv jadval chegarasiga yopishib yoziladi.

cellspacing — agar jadvalning ramka qalinligi o‘rnatilgan bo‘lsa(border), jadval yacheykasi bilan tashqi chegara orasidagi masofani o‘rnatadi.

cols — jadval ustunlarini sonini o‘rnatish(butun son kiritiladi).

height — jadval balandligini o‘rnatish.

summary — jadval haqida umumiy ma’lumot yozish uchun atribut, oddiy yozuvlardan iborat bo‘lishi mumkin, bu atribut brauzerga hech qanday ma’lumot chiqarmaydi.

width — jadvalning umumiy uzunligini o‘rnatish, piksel yoki foizlarda aks ettirilishi kerak.

<table width=»80%»>...</table>

rules — jadval chegarasini chizig‘ini qanday chizish kerakligini qoida

sifatida e'lon qilish, bu attribut quyidagi qiymatlarni qabul qiladi:

all — jadvalning har bir yacheyka chegarasini chizib chiqadi (agar border «0» ga teng bo'lmasa, bu qiymat odatiy qiymat hisoblanadi);

groups — faqat guruhli (thead, tbody, tfoot, col, colgroup teglari orqali hosil qilingan guruh) yacheykalarni chenarasini chizish;

cols — ustunlar orasiga chegara chiziqlarini chizish;

none — hech qanday chegara chiziqlari chizmaslik uchun (border=0 bo'lsa, bu qiymat odatiy qiymat hisoblanadi);

rows — qatorlar orasiga chegara chiziqoarinini chizadi.

2. **<thead>...</thead>** — jadvalning yuqori qatorlaridan bir yoki bir nechtasini saqlash uchun ishlatiladi, ya'ni yuqori qatorlarni guruhlash uchun. Bu tegdan asosan CSS stillarini ishlatganda, birdaniga jadvalning yuqori qatorlariga stil berishda ishlatiladi. Uning atributlari quyidagilar bo'lib, bu atributlar faqat shu teg orqali guruhlangan qatorlarga tegishli bo'ladi.

align — teg ichidagi qatorlarni tekislash, qiymatlari: left, right, center.

bgcolor — teg ichidagi qatorlarning foniga rang berish.

valign — vertikal bo'yicha tekislash.

3. **<caption>...</caption>** — yaratilgan jadvalga nom berish. Uning atributlari:

